

YANGI DORI VOSITALARINI YARATISH

Gulyora Muxiddinova Zuhridin qizi

Eshonqulova Muxlisa Zafar qizi

Ergashova Dildora Abdulaziz qizi

Toshkent farmasevtika instituti talabalari,

Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21216024>

Dolzarbli: Tibbiyot va farmasevtikaning eng muhim vazifalaridan biri – inson organizmiga yuqori samaradorlik bilan ta'sir ko'rsatuvchi, xavfsiz va ekologik toza dori vositalarini yaratishdir. Mavjud dorilar har doim ham yetarli samara bermasligi tufayli, olimlar yangi va samarali dori vositalarini yaratish ustida izlanish olib bormoqda. Yangi dori vositalari inson salomatligini yaxshilash hamda zamonaviy patogenlarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, yangi preparatlar yaratish yo'nalishidagi tadqiqotlar tibbiyotning eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – yangi dori moddalari yaratishda innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish, tabiiy va sintetik manbalardan samarali birikmalarni aniqlash hamda ularning farmakologik faolligini baholashdan iborat. Bugungi kunda molekulyar modellashtirish, sun'iy intellekt tizimlari va kompyuter kimyosi kabi texnologiyalar yangi dorilarni yaratishda muhim rol o'ynamoqda.

Tadqiqotning usul va uslublari. Tadqiqot jarayonida yangi dori moddalari yaratishda tabiiy, sintetik va biotexnologik manbalar o'rganiladi. Fizik-kimyoviy tahlil usullari (spektroskopiya, xromatografiya) yordamida moddalarning tuzilishi va barqarorligi aniqlanadi. Farmakologik baholash orqali biologik faollik, dozaga bog'liq ta'sir va xavfsizlik darajasi o'rganiladi. Natijalar solishtirma tahlil asosida mavjud preparatlar bilan qiyoslanib, statistik qayta ishlash orqali ilmiy xulosalar chiqariladi. Bundan tashqari, yangi dori vositalarini yaratishda o'simliklar, hayvonlar tarkibiy qismlari, kimyoviy sintez yordamida, mikroorganizmlar va gen injinerligi usullaridan foydalanish mumkin. Hozirgi kunda *in vivo*, *in vitro* va *in silico* usullaridan foydalangan holda butun dunyoda izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tajribalar xalqaro GLP, GMP va GCP talablariga javob beradigan tashkilotlarda amalga oshirilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Natijalar. Yangi dori vositalarini ishlab chiqish har yili butun dunyoda millionlab odamlarning hayotini saqlab qoladi va o'zgartiradi, ammo ularni ishlab chiqish uzoq va murakkab jarayondir. Jumladan Buyuk Britaniyada har bir yangi dorini ishlab chiqish uchun o'rtacha 1 milliard funt sterlingdan ko'proq mablag' va 10 yildan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. So'nggi yillarda O'zbekiston farmasevtika sanoatida mahalliy xomashyo asosida yangi preparatlar yaratish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, dorivor o'simliklardan olinayotgan biofaol moddalarning kimyoviy tuzilmasini tahlil qilish orqali tabiiy manbali dori vositalari ishlab chiqilmoqda. Yangi dori yaratish faqat texnik jarayon emas, balki inson salomatligi, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtiruvchi ilmiy yo'nalishdir. Shu bois, farmasevtika sohasida ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda, xalqaro hamkorlik, ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiya qilish va yosh mutaxassislarni tayyorlash masalalari ham zarurdir.

Xulosa. Yangi dori vositalarini yaratish inson salomatligini yaxshilash va kasalliklarni sifatli davolash uchun muhimdir. Zamonaviy metodlar va tabiiy manbalarni uyg'un qo'llash preparatlarning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar va sinovlar orqali

xavfsizlikni ta'minlash dori vositalarini muvaffaqiyatli yaratishda asosiy omildir. Kelgusida O'zbekiston farmasevtika sohasi yangi avlod preparatlarini yaratish orqali nafaqat ichki ehtiyojni, balki eksport salohiyatini ham oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Allayeva M.J., Hakimov Z.Z., Ismailov S.R., Aminov S.D., Mustanov T.B. Farmakologiya: darslik. - Toshkent: O'zkitobsavdonashriyoti, 2020.
2. Yakubova L.K. Farmakologiya: darslik. Toshkent: Kaleon Press, 2021.
3. Azizova S.S. Farmakologiya: darslik. - Toshkent, 2006.
4. Mamadov Yu.M., Xo'jamberdiyev M.A., Mamatov B.Yu. Klinik farmakologiya: darslik. Toshkent: Turon Iqbol, 2010.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi. - Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Dori vositalari va farmatsevtika faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar. - Toshkent.